



UDK:81.42

**Mardon RAHMATOV,**  
*Alfraganus universiteti professori v.b, DSc*  
*E-mail:mardonrahmat@gmail.com*

*Filologiya fanlari doktori I.Azimov taqrizi asosida*

#### E.VOHIDOV SHE'RIYATIDA MUROJAAT SHAKLLARINING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolani yozishda atoqli shoir Erkin Vohidovning o'tgan asrning 70-80-yilar she'riyati tanlandi[1] va tahlilga nominativ asosga ega bo'lgan leksik murojaatlar tortildi. Maqolada shoir she'rlarida qo'llangan leksik murojaatlarning strukturaviy, vazifa va pragmatik xususiyatlari, ularning she'riy matnlarni tashkil etishdagi roli tahlil qilindi. Shuningdek, tahlillarda murojaatlarning muallif maqsadini ro'yobga chiqarishdagi o'rni, hissiy va baho (konnotativ) munosabatlarni ifodalashi va kommunikativ aloqani o'rnatishdagi roli hamda ularning she'riy muloqotni tashkil qilishdagi ishtiroki malalariga e'tibor qaratildi. Tahlil natijalari o'zbek she'riyatdagi leksik murojaatlarning kommunikativ va badiiy-estetik vazifalarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Murojaat, kommunikatsiya ishtirokchilari, poetik nutq, kommunikativ vazifa, semantika, ekspressiya, murojaat obyekti, adresat, muloqot.

#### ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБРАЩЕНИЙ В ПОЭЗИИ Е.ВОХИДОВА

Аннотация

При написании данной статьи была выбрана поэзия известного поэта Эркина Вохидова 70-80-х годов прошлого века и в анализ включены лексические обращения с номинативной основой. В статье проанализированы структурные, функциональные и прагматические особенности лексических обращений, используемых в стихотворениях поэта, их роль в организации поэтических текстов. Также в анализе уделено внимание роли обращений в реализации авторской цели, их роли в выражении эмоционально-оценочных (коннотативных) отношений и установлении коммуникативной коммуникации, а также их участию в организации поэтического диалога. Результаты анализа помогают глубже понять коммуникативные и художественно-эстетические функции лексических обращений в узбекской поэзии.

**Ключевые слова:** Обращение, участники коммуникации, поэтическая речь, коммуникативная задача, семантика, экспрессия, объект обращения, адресат, коммуникация.

#### FUNCTIONAL AND SEMANTIC FEATURES OF APPEALS IN THE POETRY OF E. VOKHIDOV

Annotation

This article focused on poetry by renowned poet Erkin Vokhidov from the 1970s and 1980s, and included lexical references with a nominative basis in its analysis. The article analyzes the structural, functional, and pragmatic features of lexical references used in the poet's poems, as well as their role in organizing poetic texts. The analysis also focuses on the role of lexical references in realizing the author's goals, their role in expressing emotional and evaluative (connotative) relationships and establishing communicative communication, and their role in organizing poetic dialogue. The results of the analysis provide a deeper understanding of the communicative and artistic-aesthetic functions of lexical references in Uzbek poetry.

**Key words:** Address, communication participants, poetic speech, communication task, semantics, expression, object of address, addressee, communication.

**Kirish.** Ushbu maqola tilshunoslik ilmda yangi-yangi tadqiqotlarning yuzaga kelishiga sabab bo'layotgan va an'anaga aylangan antroposentrik tadqiqotlar yo'nalishida bo'lib, bundan ko'zlangan maqsad shoir E.Vohidovning sobiq sho'rolar davri ijodi namunalari asosida she'riy badiiy nutq doirasida lingvistik tadqiqot o'tkazish va shoir ijodining o'ziga xos jihatlarni aniqlashdir. Zero, "O'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga unutilmas hissa qo'shgan atoqli shoir va adib, taniqli davlat va jamoat arbobi, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov ijodiy merosining yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasidagi ulkan ahamiyati" cheksizdir[2].

She'riy asarlarda qo'llangan leksik murojaatlarning strukturaviy, semantik va pragmatik xususiyatlarini aniqlash, ularning she'riy matnlarni tashkil etishdagi roli masalalarni tadqiq etish o'zbek tilshunosligi oldida turgan muhim masalalardan sanaladi. Shuning uchun biz E.Vohidovning o'ziga xos uslub (ideostil)ini ta'minlovchi til materiallaridan

biri – predmet murojaatlarning funksional va semantik jihatlarini o'rganishga harakat qildik.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlarda undalmarga gapning struktur-sintaktik birligi sifatida qaralib, ularning asosan funksional-sintaktik, leksik-semantik, struktur-kompozitsion xususiyatlari o'rganilgan va ularning tipologiyasi yaratilgan[3]. Keyingi davrlarda esa undalmalarning ko'proq semantik tuzilishi, struktur-grammatik xususiyatlari o'rganildi, shuningdek, ayrim tadqiqotlarda murojaatlarning funksional-stilistik xususiyatlari ham o'rganilgan[4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tilshunosligimizda poetik (she'riy) asarlarda undalma-murojaatlardan foydalanish va ularning badiiy obraz yaratishdagi ishtiroki va vazifa xususiyatlari deyarli o'rganilmagan. Murojaatlarning funksional-semantik yondashuv asosida o'rganish – ularning badiiy kommunikatsiyadagi semantik roli va vazifa xususiyatlarini to'liq tadqiq qilishga yo'l ochadi. YA'ni

murojaatlarning funksional-semantik planda o'rganilganda murojaat shakllari orqali muallif/shoirmning mualliflik pozitsiyasi, badiiy niyati hamda ularning bir-biriga ta'siri masalalariga e'tibor qaratiladi. Tadqiqot mavzusini yoritishda analiz, sintez, tavsiflash, tasniflash, uslubiy-vazifaviy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Ma'lumki, murojaat shakllari (undalmalar) oddiy so'zlashuv uslubiga xos bo'lib, mualliflar tomonidan boshqa nutq uslublariga ham ko'chirildi, jumladan, badiiy nutqqa ham. Poetik asarga ko'chirilgan murojaatlar dastlabki ko'rinishidan ma'lum jihatlarga ko'ra farq qiladi. YA'ni har qanday murojaat shaklining poetik ko'rinishi asar muallifi tomonidan tanlangan, uning badiiy shuurida ishlov berilgan, asar strukturasi elementiga aylantirilgan, muallifning asardan ko'zlagan badiiy g'oyasini ochishga qaratilgan bo'ladi va yana, eng asosiysi, ularning kommunikativ vazifa bajarishidir. Agar og'zaki so'zlashuvda murojaatlarning asosiy vazifasi nutq adresatni ko'rsatish (yoki belgilash), uni boshqalardan ajratish, u bilan aloqa (kontakt) o'rnatish bo'lsa, poetik/she'riy nutqda, she'riy strukturani (she'riy nutqni) shakllantirish va uni adresatga yo'naltirish hamda muallifning badiiy niyatini ifodalashdir. Bundan tashqari badiiy undalmalar asarda estetik qiymatga ham ega bo'lib muallif tomonidan yuklangan semantik va badiiy axborot yukini tashiydi.

Tilshunoslikda nominativ asosga ega bo'lgan murojaatlar "predmet-murojaatlar" deb ham yuritiladi va zamonaviy leksikografiyada uning bir necha turlarga qayd etiladi. "Predmet murojaatlar"lar deganda nafaqat shaxs, narsa-predmetlarga qarata qo'llaniladigan murojaatlarni, balki poetik asarlarning g'oyasi, mazmunidan kelib chiqib maxsus yaratiladigan metaforik va konsept murojaatlarni yoki shoirmning tasavvuri, iqtidori va fantaziyasi doirasida yaratilgan boshqa murojaatlarni ham tushunish kerak bo'ladi. Bunday murojaatlar kommunikativ jarayonni yanada samarali va natijali bo'lishini ta'minlaydi.

E.Vohidovning she'rlarida predmet-murojaatlar aniq leksik ma'no va assotsiatsiyalar bilan bog'langan emotsional yoki lirik obraz effektini yaratish maqsadida qo'llanilgan murojaatlardir. E.Vohidov she'rlarida shaxsga qaratilgan murojaatlarning mazmunidan kelib chiqib quyidagicha tasniflash mumkin: bag'ishlov murojaatlari, murojaat-regulyatorlar, murojaat-indekslar. Ular she'riy matnda asosan nominativ (nutq referentini nomlash), ekspressiv-tavsif va she'riy matni shakllantirish vazifasini bajargan. Ularning apellyativ vazifasi butunlay yoki qisman so'nadi. She'riy murojaatlarda apellyativ vazifaning so'nishi ularning ritorikasini kuchaytiradi.

Shoirmning shaxsga qaratilgan predmet-murojaatlari mazmunida yaqinlari, do'stlari, hamkasblari yotadi, shuning uchun ularga nisbatan ma'lum ma'noda bag'ishlov she'rlari sifatida qarash mumkin. Bunday she'rlar bevosita nutq qaratilgan shaxs nomlari – antroponimlar qo'llanadi. "Qorxat" she'rida shoir zamondosh o'zbek shoirlarini tanlaydi va ularni nutq obyektiga aylantiradi, ularni tavsiflaydi va shu tavsifiy belgilar orqali ularga murojaat qiladi: ularning chiroy-u fayzga boyligini, she'rlari soy kabi serjilva va sermazmun ekanligiga ishora qiladi. Bu kabi murojaatlar bevosita konkret adresatlarga qaratadi va o'zining lirik kechinmalarini, shaxsiy munosabatini ifodalaydi. Shoirmning murojaatlari mazmunidan anglashiladigan tasvirlarni tavsifiy murojaatlar qatoriga kiritish o'rindir:

Sizga, ey Gulchehra qizlar, E'tibor,  
Aytamiz ko'ngilda orzu neki bor.  
Oy Halima ham Malika, Tursunoy,  
Ey chiroy-u fayzga boy-u she'ri soy,  
Sizga dildan eng samimiy ehtirom,  
Yangi yilning tabrigi ham assalom! (Qorxat)

Mazkur she'rda atoqli otlardan ifodalangan bag'ishlov murojaatlarining funksional-semantik tabiati quyidagi vazifalardan iborat: a) nutqni yo'llash (apellyativ – so'zlovchining adresatga chaqirig'i, she'riy ritorik murojaat); b) nominativ (nutq adresatini nomlash); c) tavsiflash (ularning ismi ma'nosi bilan bog'langan tavsifiy belgilar), shuningdek, ularning har biriga xos tavsifiy belgilar: chiroyli, fayzli, she'rlari soy kabi); d) emotiv-regulyatorlik (ular o'zbek jamiyatining ziyoli qatlam vakili – shoirlar ekanligi hamda shoirmning hissiy munosabati qizlar, oy, she'r so'zlarida ham namoyon bo'lgan) va e) matni shakllantirish kabi. Shuningdek, murojaatlar semantikasidan shoirmning biografiasiga oid ma'lum bir ma'lumotlarga ega bo'lish hamda shoir olamining lingvistik manzarasini anglash mumkin bo'ladi. Tahlillardan ma'lum bo'ladiki, shoir she'rlarida qo'llagan murojaati ko'pfunksional. Ularning har birining she'riy asarda o'z o'rni bor. Shu bois ularning har biriga eng muhim komponent sifatida qarash kerak bo'ladi. Bu uning shakllantirish vazifasidir.

Ta'kidlanganidek, she'riy asarlarda murojaatlar psevdopellyativ xarakterga ega bo'lib, ular asosan she'rxon/she'r yo'llangan adresatning diqqati tortishga, uning idrokini tartibga solishga xizmat qiladi. Shuning uchun ular ritorik murojaatlar (apostrofa) deb ham yuritiladi[5]. Bunday murojaatlar yordamida lirik subyekt – shoir do'stlariga, kasbdoshlariga, zamondoshlariga xitob qiladi. Bu usul shoirga o'zining dil izhorlari, his-tuyg'ulari bilan bog'liq lirik kechinmalarini she'riy tizimga solish imkonini beradi.

Aksariyat hollarda shoir shaxsiy murojaatlarida yaqinlik, samimiylik ma'nosini ifodalash uchun -im egalik shaklini qo'llaydi. Bu esa, o'z navbatida, murojaat shakliga subyektivlik (subyektiv baho), ifodaviylik, tavsifiylik kabi funksional xususiyatlarni ta'minlashga erishgan:

O'g'lim, ey, umidim bog'ida nihol,

Yorug' peshonangni o'pib silayman. (Ota tilagi)

Shuningdek, murojaat shakllarida qo'llanuvchi -im egalik affiksi egalik ma'nosiga xususiylik (subyektivlik) o'ttenkasini kiritish bilan nutqning emotsional-ekspressiv qiymatini oshiradi, murojaat yo'llanayotgan obyektga nisbatan qo'shimcha konnotativ ma'nolarni: iliq munosabat va kayfiyatni ifodalaydi. Bunday murojaatlar E.Vohidov she'rlarida ko'pchilikni tashkil qiladi. Shoir tasavvuridagi murojaat obyektlar sifatida shaxs nomlari o'quvchim, qahramonim; bolajonlarim, qaqajonlarim, qizalog'im; o'xshatish asosli polaponlarim, yulduzim, shirinim, azizim, jonajonlarim, shuningdek, jonli deb tasavvur qilingan murojaatlar: she'rlarim, munisim, dorilfununim, yoshligim, yuragim, ona yurtim kabi ham talaygina. -im egalik affiksi ba'zi murojaat birliklaridagi ijobiy ma'noni yanada kuchaytirishga, bo'rttirishga, "o'stirishga" xizmat qiladi[6].

Ma'lumki, og'zaki nutqda suhbatdosh bilan aloqa o'rnatish va aloqani boshqarish maqsadida murojaat-regulyatorlardan foydalaniladi. She'riy matnda regulyativ elementlar muallifning adresatga, aksariyat hollarda esa she'r kimga qaratilgan – bag'ishlangan bo'lsa, o'sha shaxsga nisbatan shoirmning munosabati aks etadi, bunday murojaatlar ko'proq shoirmning do'stona munosabatini ifodalaydi. Bu tur murojaatlar nutqni tartibga solish, ya'ni regulyatorlik vazifasini bajaradi.

E.Vohidovning she'riy asarida regulyator-murojaatlar boshqa murojaat shakllariga qaraganda ko'poq qismni tashkil qiladi. Shoir ko'pincha zamondoshlariga, keng she'rxon/oquvchilar auditoriyasiga mening do'stlarim, jondoshlarim, o'quvchim, qahramonim kabi regulyator-murojaatlar orqali murojaat qiladi.

Ey, mening do'stlarim, kiromu matlub,

Yoshlikning o'ziday aziz, yagona. (Do'stlarga maktub)

...Yolg'iz qo'ying meni, do'stlarim,  
Charchaganman, orom olayin. (Yolg'izlik istagi)

Ta'kidlanganidek, she'riy asarlarga xos xususiyat undagi badiiy axborot va uning kimga qaratilganligida. YA'ni bu tur bag'ishlov she'rlarda ko'proq shoirning shaxsiy murojaatlari yangraydi. Bunda muallif va she'rxon o'rasidagi munosabatlar to'liq muvofiqlashadi. Ular sof real, tabiiy xarakterga ega bo'lib, asosan shoirning tarjimai holi, ijodiy faoliyati bilan bog'lanadi. Bunday murojaatlarda shoirning ijodiy faoliyati bilan bog'liq biografik ma'lumotlar va tarixiy faktlar uyg'unlik kasb etadi.

She'rxon, meni tutding savolga,  
Tushunaman, o'quvchim, seni.  
Lekin faqat borliging uchun,  
Qahramonim, senga tashakkur. (Lirik qahramon)  
Ey, sen, go'zal singlim, oshiq ukajon,  
Oq yo'l, saodatli sitoralarga! (To'y oqshomida)

Shoirning "Kuzatish" she'ri ham mazmunan bag'ishlov. U mazkur she'rini o'zining ijodiy faoliyatiga, she'rlariga bag'ishlaydi. Shoir she'rida she'rlarini nomlash uchun til fondidagi turli til belgilaridan foydalanadi, ularni turlicha nomlar bilan ataydi va shu tariqa murojaatlarning davomli bo'lishiga erishadi. Shoir bir murojaat obyektini nomlarini tez-tez o'zgartiradi, ularning aksariyati metaforik xarakterga ega: u o'z she'rlarini goh bolasiga, goh uchishga shay polaponlarga, goh ularni shakllanib kelayotgan jajji bolalar – qaqaqonlarga o'xshatadi.

She'rlarim, bolajonlarim,  
Qora-qura polaponlarim,  
Jo qilayin sizni jonimga,  
Chug'urlashib keling yonimga.  
...She'rlarim, polaponlarim,  
Chag'ir-chug'ur qaqaqonlarim,  
Ust-boshingiz tuzatarkanman,  
Olis yurtga kuzatarkanman,  
Sizga boqqan yoshli ko'zim bor...

Shoir she'rning keyingi misralarida qo'llangan murojaatlari bolalarning xulq-atvori-yu, xarakteri, sho'xliklaridan kelib chiqib tanlangan va ualrni murojlat obyektiga aylantirgan: she'rlarim, bolajonlarim, serjanjal, serto'polon(larim) kabi. Keyingi misralarida esa shoir tasvir obyektini qalamga olar ekan, ularga yana ijodiy munosabatini davom ettirib jonajonlarim deydi va murojaatlarini yana bolajonlarim bilan tugatadi. Murojaat shakllari mazmunidan ma'lum bo'ladiki, she'rda undalmalar nominativ birlik sifatida o'zining voqelikka munosabatini ifodalash bilan birga o'zida konnotativ ma'no – baho semasini ham saqlagan. Undagi grammatik vositalar esa leksik ma'no ustiga yuklangan o'shimcha konnotativ ma'no sanaladi.

Yuqorida keltirilgan murojaat so'zlari shoirning shaxsiy kechinmalari va munosabatlari asosida qo'llangan. Ammo shoirning she'rlari orasida vaqt ma makondan uzilgan, bevosita guvohi bo'lmagan voqealar ham qalamga olingan. Masalan, shoir "Vafo" she'rini H.Olimjon va Zulfiya bag'ishladi. Bu she'r rolli she'r bo'lib shoir H.Olimjon va Zulfiya tilidan so'zlaydi: ular tiriklar kabi bir-biriga murojaat qiladi. She'r bu dunyoni erta tark etgan H.Olimjonning alamli, sog'inchi, iztirobi, dardli so'zlari, Zulfiyaning achchiq ayriliq dardi, sog'inchi sifatida jaranglaydi. She'rda ular bir-biriga murojaat birliklari orqali murojaat qiladi. Ularning murojaatlari ham apellyatiy vazifa bagarmaydi. Ular shoirning mazkur tarixiy shaxslarning badiiy tasviri va badiiy obrazini to'laonli yaratishdagi bir urinishi, ya'ni shoirning badiiy tasvir yaratishdagi bir usuli deb baholash mumkin. Dialogik (savol-

javob) mazmundagi she'rda tasvir obektlari bir-biriga o'zlarining jamiyatdagi o'rmi, sotsial maqomiga ko'ra murojaat qiladi. Ular bir-biriga hurmat-ehitrom bilan shoir, shoirim; shoiram deb, tavsifiy belgilariga ko'ra farishtam, dono go'zalim deb murojaat qiladi. Bu ularning she'rdagi nomlaridir.

Adabiyotlarda bu kabi murojaatlar indeks-murojaatlar deb ham yuritiladi[7]. Indeks-murojaatlar badiiy uslubga qaraganda og'zaki va rasmiy nutq doirasida ko'proq qo'llanadi va ko'proq obyektini ijtimoiy mavqeyi bilan nomlab xitob qilishda qo'llanadi. She'riy nutqda esa uning qo'llanishida o'ziga xoslik kuzatiladi. YA'ni she'riy asarda indeks-murojaatlarning qo'llanishi shartli bo'lib, ular ko'proq umumiy xarakterga egadir. Bunda asosan shoir she'riy obraz – poetik adresat yaratish hamda lirik kayfiyat hosil qilish maqsad qilinishi.

Siz, tarjimon, ey muhtaram zot!  
She'rlaringa berguvchi qanot!  
«Ey voz, pastga tushgin,  
Bu gap chiqdi qaerdan!» (Ona tilim o'lmaydi)  
Siz esa, notiqlar, qandoq jazo bu,  
Hadeb pand o'qiyisiz bechoralarga. (To'y oqshomida)  
Ustoz, sen bir inson umri muqaddam  
Xato qilgan eding, izlab xudovand. (Kelajakka maktub)  
Sizga havas qildim, doktor, menga ham  
Mo'jiziy bu hikmat berilsa edi.  
...Doktor, ochib ko'ring daftaringizni,  
Bundoq joni qattiq qanday virus bor?  
Doktor, quloq tuting! Momoguldirak!  
Havo tozarmoqda — virusga qiron. (Viruslar)  
Indeksli murojaatlar murojaat obyektlarini kasbi-koriga ko'ra nomlab ularning ijtimoiy xarakteristikasini, jamiyatdagi rolini ko'rsatadi.

Shoir! Ey, tinchimas olovli yurak!  
Adolat yulduzi senga mayoqdir. (Sharqiy qirg'oq)  
Ovora bo'lmang, ey, hassos shoirlar,  
Ayol tasviriga ojiz erur she'r. (Sakkizinchi mart)  
Shuningdek, shoir she'rda murojaat obyektining murojaatchiga nisbatan subyektiv "do'stona", "yaqinlik" munosabatini ifodalashda og'zaki nutqqa xos til elementidan foydalanadi. Bu "do'stona" munosabat ma'nosi og'ayni leksemasida mavjud:

-Nima yashirgansiz, shoir og'ayni?  
Hazil qilishadi hamkasb o'rtoqlar. (Dehli aeroportida ...)

E.Vohidovning ba'zi she'rlarida konkret nutq vaziyati bilan bog'langan indeks-murojaat shakllari ham qo'llangan. Buni shoirning biografiyasi bilan ham bog'lash mumkin. Bunday nutq shakli "Dehli aeroportida" she'rida dialog tarkibida uchraydi:

-Janob, yukingizni bu yoqqa qo'ying,  
O'zingiz bu yerdan o'ting, marhamat. (Dehli aeroportida ...)

Murojaatning bu ko'rinishi rasmiy diplomatiyaga xos bo'lib, bunda obyektlar: murojaatchi va murojaat yo'naltirilgan obyekt orasidagi distansiya mavjudligiga ham ishora qiladi.

**Xulosalar.** Murojaat shakllarining tahlilidan ma'lum bo'ladiki E.Vohidov she'rlarida qo'llangan murojaatlar ko'pfunksional. Ularning ko'pfunksionalligi nafaqat nutq obyektini (referent)ni ifodalashida, balki shu nom (nominativ birlik) orqali she'riy badiiy obrazni shakllantirish, she'riy nutqini tartibga solish, modal-emotsional yuk tashida namoyon bo'ladi, shuningdek, ularning mazmunida shoirning subyektiv munosabati aks etadi hamda she'riy matnning strukturasi muhim o'rin tutadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Tahlil objekti sifatida shoirning 2001-yilda e'lon qilingan II jild saylanmasi tanlandi.

2. O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludining 80-yillicini nishonlash to‘g‘risida. <https://president.uz/oz/lists/view/48>
3. Сайфуллаев А.Р.. Семантика и грамматика членов предложения в современном узбекском языке.: Автореф. дис... канд. фил.наук. –Т., 2001. с.40.
4. Акбарова З.А. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи. Филол.ф.н...дисс. – Тошкент. 2007. 134-б. 2. Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларинингсемантик-коннотатив тадқиқи. филол.ф.н....дисс. – Тошкент. 2008. -В.154.
5. Қуроноф Д. Адабиётшунослик луғати.- Тошкент: Akademnashr, 2010. -218, 252 б.
6. Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларинингсемантик-коннотатив тадқиқи. филол.ф.н....дисс. – Тошкент. 2008. -В.154.
7. <https://studfile.net/preview/7140298/page:16/>